

## TALABANING SHAXS SIFATIDA MA'NAVY-AXLOQIY RIVOJLANISHINING METODOLOGIK ASOSLARI VA INTELLEKTUAL-VIZUAL MUHITNING AHAMIYATI

**Muxammadxo'jayeva Zuxra Raxmatullayevna,**  
*Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi  
milliy instituti doktoranti, dotsent, p.f.f.d. (PhD)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada talabanning shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy rivojlanishining metodologik asoslari tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim jarayonida intellektual-vizual muhitning o'rni va uning talaba shaxsining shakllanishiga ta'siri yoritib beriladi. Tadqiqotda tizimli, aksiologik va faoliyatga yo'naltirilgan yondashuvlar asosida ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqilgan. Intellektual-vizual vositalarning ta'lim samaradorligini oshirishdagi ahamiyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-axloqiy rivojlanish, talaba shaxsi, metodologik asoslar, intellektual-vizual muhit, kompetensiya, ta'lim texnologiyalari, aksiologik yondashuv, pedagogik jarayon.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются методологические основы духовно-нравственного развития студента как личности. Особое внимание уделяется роли интеллектуально-визуальной среды в современном образовательном процессе и ее влиянию на формирование личности студента. В исследовании анализируются системный, аксиологический и деятельностный подходы к развитию духовно-нравственных компетенций. Научно обосновывается значение интеллектуально-визуальных средств в повышении эффективности обучения.

**Ключевые слова:** духовно-нравственное развитие, личность студента, методологические основы, интеллектуально-визуальная среда, компетенции, образовательные технологии, аксиологический подход, педагогический процесс.

**Abstract.** This article examines the methodological foundations of the spiritual and moral development of a student as an individual. It highlights the importance of the intellectual-visual environment in the modern educational process and its impact on the formation of a student's personality. The study analyzes systemic, axiological, and activity-based approaches to developing spiritual and moral competencies. The significance of intellectual-visual tools in enhancing educational effectiveness is scientifically substantiated.

**Keywords:** spiritual and moral development, student personality, methodological foundations, intellectual-visual environment, competencies, educational technologies, axiological approach, pedagogical process.

**Kirish.** Bugungi globallashuv jarayonida ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – har tomonlama yetuk, ma'naviy-axloqiy barkamol, mustaqil fikrlay oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida tahsil olayotgan talabalar kelajak jamiyatining intellektual salohiyatini belgilab beruvchi asosiy qatlam hisoblanadi. Shu bois talabanning nafaqat kasbiy bilimlari, balki uning ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish dolzarb masalaga aylanmoqda [1].

Zamonaviy ta'lim jarayonida intellektual-vizual muhitning shakllanishi ushbu rivojlanish jarayoniga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Mazkur muhit orqali talabalarning bilim olish, tafakkur yuritish, axloqiy qadriyatlarni anglash jarayonlari yanada samarali tashkil etilmoqda. Ushbu maqolada talabanning shaxs sifatida ma'naviy-axloqiy

rivojlanishining metodologik asoslari tizimli, aksiologik, muhitga yo'naltirilgan hamda subyekt-faoliyat yondashuvlari integratsiyasi asosida tahlil qilinadi [2].

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur tadqiqot doirasida talabaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi masalalari Lev Vygotsky, Aleksei Leontiev hamda Vasily Davydovlarning ilmiy qarashlari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va raqamli ta'lim muhitiga oid qarashlar UNESCO hujjatlari hamda George Siemensning nazariyalari bilan boyitildi. Milliy pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar ham o'rganilib, ular orqali ma'naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari umumlashtirildi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatdiki, intellektual-vizual muhit shaxs rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi muhim omil sifatida e'tirof etiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqotda tizimli, aksiologik, muhitga yo'naltirilgan hamda subyekt-faoliyat yondashuvlari integratsiyasi asosida ilmiy tahlil olib borildi. Nazariy manbalarni qiyosiy va kontseptual tahlil qilish orqali talabaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar aniqlashtirildi. Shuningdek, intellektual-vizual muhitning pedagogik samaradorligi umumlashtirish va modellash usullari orqali asoslab berildi.

**Tahlillar va natijalar.** Ma'naviy-axloqiy rivojlanish – bu shaxsning jamiyatda qabul qilingan axloqiy me'yorlar, qadriyatlar, e'tiqodlar asosida shakllanish jarayoni bo'lib, u insonning ichki dunyosi, ong va xulq-atvorida namoyon bo'ladi. Talaba shaxsida bu jarayon o'qish, muloqot, ijtimoiy faoliyat hamda shaxsiy tajriba orqali amalga oshadi [3].

Ma'naviy rivojlanish axloqiy ong, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat, estetik did, fuqarolik pozitsiyasi komponentlarni o'z ichiga oladi [3].

Axloqiy rivojlanish esa shaxsning to'g'ri va noto'g'ri ajrata olish, jamiyat qoidalariga amal qilish, boshqalarga hurmat bilan munosabatda bo'lish kabi jihatlarni qamrab oladi.

Intellektual-vizual muhit tushunchasi va uning xususiyatlari. Intellektual-vizual muhit – bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, vizual vositalar, multimedia resurslar orqali yaratilgan o'quv muhiti bo'lib, u talabaning bilim olish va tafakkur qilish jarayonini kuchaytiradi [5].

Intellektual-vizual muhitning asosiy xususiyatlari- ko'rgazmalilik va vizuallik, interaktivlik, axborotning tezkorligi, individuallashtirish imkoniyati, kreativ fikrlashni rivojlantirish. Bu muhitda ta'lim jarayoni faqat ma'lumot berish bilan cheklanmaydi, balki talabaning shaxsiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, vizual axborotlar (grafika, animatsiya, video) orqali axloqiy g'oyalar va qadriyatlarni yetkazish samaraliroq bo'ladi [4; 7].

Tizimli yondashuv shaxs rivojlanishini yaxlit tizim sifatida ko'rib chiqadi. Bu yondashuvga ko'ra, talabaning ma'naviy-axloqiy rivojlanishini esa ta'lim mazmuni, pedagogik jarayon, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy muhit, shaxsiy motivatsiya kabi elementlar o'zaro bog'liqligida amalga oshadi:

Tizimli yondashuvning afzalligi shundaki, u rivojlanish jarayonini kompleks tarzda tashkil etishga imkon beradi. Intellektual-vizual muhitda bu yondashuv multimedia vositalari, elektron platformalar va interaktiv metodlar orqali amalga oshiriladi [7].

Aksiologik yondashuvning markazida qadriyatlar turadi. Bu yondashuv talabani ma'naviy-axloqiy rivojlanishini qadriyatlarni anglash va ularni shaxsiy hayotiga tatbiq etish orqali tushuntiradi.

Talaba uchun muhim bo'lgan qadriyatlar:

- insonparvarlik;
- vatanparvarlik;
- halollik;
- adolat;
- mehnatsevarlik.

Intellektual-vizual muhitda ushbu qadriyatlar turli vizual materiallar, ijtimoiy rolklar, interaktiv darslar orqali shakllantiriladi. Bu esa talabani qadriyatlarni nafaqat tushunish, balki his etishiga ham yordam beradi.

Muhitga yo'naltirilgan yondashuv shaxs rivojlanishida tashqi omillar – ya'ni muhitning rolini muhim deb hisoblaydi. Talabani ma'naviy-axloqiy rivojlanishida quyidagi muhitlar muhim:

- ta'lim muassasasi muhiti;
- oilaviy muhit;
- ijtimoiy-madaniy muhit;
- raqamli muhit.

Intellektual-vizual muhit aynan raqamli muhitning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u talabani dunyoqarashini kengaytiradi, global qadriyatlar bilan tanishtiradi va mustaqil fikrlashga undaydi[8].

Subyekt-faoliyat yondashuvi talabani faol ishtirokini asosiy omil sifatida ko'radi. Bu yondashuvga ko'ra, talaba passiv qabul qiluvchi emas, balki faol subyekt hisoblanadi.

Bu yondashuv quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- mustaqil o'rganish;
- muammoli vaziyatlarni hal qilish;
- ijodiy faoliyat;
- refleksiya.

Intellektual-vizual muhitda bu yondashuv loyiha ishlari, virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar orqali amalga oshiriladi. Bu esa talabani ma'naviy va axloqiy qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi [5; 4].

Tizimli, aksiologik, muhitga yo'naltirilgan va subyekt-faoliyat yondashuvlarining integratsiyasi talabani ma'naviy-axloqiy rivojlanishini yanada samarali tashkil etishga imkon beradi.

Ularning integratsiyasi natijasida:

- ta'lim jarayoni komplekslashadi;

- talabning shaxsiy rivojlanishi jadallashadi;
- qadriyatlar ongli ravishda shakllanadi;
- mustaqil fikrlash rivojlanadi.

Bu integratsiya ayniqsa intellektual-vizual muhitda yuqori samaradorlik beradi, chunki bu muhit turli yondashuvlarni birlashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, talabning ma'naviy-axloqiy rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etishda intellektual-vizual muhit muhim rol o'ynaydi. Tizimli, aksiologik, muhitga yo'naltirilgan va subyekt-faoliyat yondashuvlarining integratsiyasi esa bu jarayonni yanada mukammallashtiradi.

Kelgusida ushbu yo'nalishda ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish hamda raqamli ta'lim muhitini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa nafaqat bilimli, balki yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. *Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.* – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. UNESCO. *Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives.* – Paris, 2017y.
3. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya.* – Moskva: Pedagogika, 1991y. 480 bet
4. Leontev A.N. *Faoliyat, ong va shaxs.* – Moskva: Politizdat, 1975y. 304 bet.
5. Davydov V.V. *Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi.* – Moskva: Intor, 1996y. 544 bet.
6. To'xtaxodjayeva M.X. *Pedagogika nazariyasi.* – Toshkent: O'qituvchi, 2010y. 320 bet
7. Abduqodirov A.A. *Axborot texnologiyalari va ta'lim jarayoni.* – Toshkent: Fan, 2012y. 250 bet.
8. Siemens G. *Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age.* –International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2. January.-2005y.